



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



QADRIYATGA OID TURK MAQOLLARIDA ERKAK OBRAZINING KONSEPTUAL TAHLILI

Nuriddin Altinboyev

O'qituvchi, tayanch doktoranti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: turk maqollari, qadriyat, erkak obrazi, ota, er, oʻgʻil farzand.

Annotatsiya: Maqollar xalq madaniyatining yorqin namunasi boʻlishi bilan birga oʻsha xalq urf-odatini, qadriyatlari va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi koʻzgu hisoblanadi. Har bir maqol maʼlum bir holat va vaziyat uchun yechim, xulosa yoki maslahat vazifasini oʻtaydi. Turk tilida oila bilan bogʻliq maqollar jamiyatdagi boshqa mavzularga oid maqollarga nisbatan son jihatdan koʻpchilikni tashkil qiladi. Mazkur maqolada turk tilidagi qadriyatga oid maqollarda erkak obrazi tahlil qilingan. Maqolada turk madaniyatida oila, ushbu atamaning qadimgi turkiyidagi ifodasi va hozirgi kundagi nomlanishi keltirilgan. Turk madaniyatida oila mudaqqas maskan boʻlishi bilan bir qatorda, jamiyat va davlat shakllanishidagi muhim boʻgʻin sifatida qaralgan. Oila ota-ona va farzandlardan tashkil topgan jamiyatning eng kichik, ayni vaqtda eng muhim birligi hisoblanadi. Mazkur birlik tarkibidagi ota, er va oʻgʻil farzand turk madaniyatida, qadriyatida qay tariqa namoyon boʻlishi maqollarda oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi.

Ota oila boshligʻi va muqaddas shaxsiyat sifatida qaraladi. U namuna, meros qoldiruvchi sifatleri bilan ulugʻlanadi. Er oila taʼminotchisi, himoyachisi va nazoratchisi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda kenglik, saxiylik timsoli sifatida namoyon boʻladi. Turk maqollarida er xonadoni ota xonadonidan afzal koʻrilishi va yetti oʻgʻilga badal ekanligiga guvoh boʻldik.

Oʻgʻil farzand noyob va har uyda topilmaydigan borliq sifatida baholanadi, lekin ulgʻayishi yaʼni yangi oila qurishi bilan eng ulugʻ va yuqori darajadan qoʻshni, begona darajasiga tushadi. Bunda bir markazdan uzoqlashib boshqa bir markaz tashkil qilish qonuniyatini koʻrishimiz mumkin.

Turk madaniyatida erkak kishining tashqi tomonga intilishi ijobiy baholangan bo'lsa, ichkariga yo'nalish ya'ni ichkuyovlik qattiq qoralanadi.

CONCEPTUAL ANALYSIS OF THE IMAGE OF MEN IN TURKISH PROVERBS ABOUT VALUE

Nuriddin Altinboyev

Teacher, PhD student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkish proverbs, value, male image, father, husband, son.

Abstract: Proverbs are a vivid example of the culture of a people and a mirror reflecting the customs, values and social life of this people. Each proverb serves as a solution, conclusion or advice for a specific situation and situation. There are more proverbs related to family in the Turkish language than proverbs related to other topics in society. This article analyses the image of man in proverbs about value in Turkish. The article presents the family in Turkish culture, the expression of this term in ancient Turkic language and its modern name. In Turkish culture, the family is seen not only as a sacred space, but also as an important link in the formation of society and the state. The family is the smallest and at the same time the most important unit of society, consisting of parents and children. The way father, husband and son in this unit manifests itself in Turkish culture and values is uniquely reflected in proverbs.

The father is considered the head of the family and a holy person. He is praised for his role of example and legacy. The husband is the breadwinner, protector and overseer of the family. At the same time, he acts as a symbol of spaciousness and generosity. In Turkish proverbs we have seen that the husband's family is preferred to the father's family and that the husband is equal to seven sons.

A son is valued as a unique being and is not found in every home, but when he grows up, that is, when he starts a new family, he is demoted from the greatest and highest status to the level of neighbour and stranger. In this case we see the legitimacy of creating another centre away from one centre.

A man's going outside the home is positively valued, but the inward direction - living in his wife's house - is strongly disapproved of.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗА МУЖЧИНЫ В ТУРЕЦКИХ ПОСЛОВИЯХ О ЦЕННОСТИ

Нуриддин Алтынбоев

Преподаватель, докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: турецкие пословицы, значение, мужской образ, отец, муж, сын.

Аннотация: Пословицы являются ярким примером культуры народа и зеркалом, отражающим обычаи, ценности и общественную жизнь этого народа. Каждая пословица служит решением, выводом или советом для конкретной ситуации и положения. Пословиц, связанных с семьей, в турецком языке больше, чем пословиц, связанных с другими темами общества. В данной статье анализируется образ мужчины в пословицах о ценности в турецком языке. В статье представлена семья в турецкой культуре, выражение этого термина в древнетюркском языке и ее современное название. В турецкой культуре семья рассматривается не только как священное пространство, но и как важное звено в формировании общества и государства. Семья – самая маленькая и в то же время самая важная ячейка общества, состоящая из родителей и детей. То, как отец, муж и сын в этой единице проявляются в турецкой культуре и ценности, уникальным образом отражено в пословицах.

Отец считается главой семьи и святым лицом. Его хвалят за роль примера и наследия. Муж является кормильцем, защитником и наблюдателем семьи. В то же время он выступает как символ простора и щедрости. В турецких пословицах мы видели, что семья мужа предпочтительнее семьи отца и что муж равен семи сыновьям..

Сын ценится как существо уникальное и не в каждом доме его можно встретить, но когда он вырастает, то есть когда он заводит новую семью, он понижается с самого большого и высшего статуса до уровня соседа и постороннего человека. В этом случае мы видим законность создания другого центра вдали от одного центра.

Выход мужчины за пределы дома ценится положительно, но внутреннее направление – проживание в доме жены – категорически не одобряется.

KIRISH

Biror bir xalqni, millatni yaxshi anglash uning ijtimoiy tuzilmasini yaxshi o'rganib chiqishni taqozo etadi. Turk millatining ijtimoiy holatini o'rganish uchun eng ishonchli usul turk yozma manbalariga murojaat qilamiz. Ushbu manbalarining boshida, albatta, Ko'kturk yodgorliklari keladi, chunki Ko'kturk davlat tashkiloti va ijtimoiy tuzilmasi o'zidan keyingilar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'kturk yodgorliklarida turklarning ijtimoiy hayotini ifoda etuvchi quyidagi atamalarni uchratamiz: *oğuş* – oila, *urug* – oilalar birlashmasi, *bod* – urug',

qabila, *bodun* – qabilalar ittifoqi, *il* – mustaqil jamiyat, davlat¹. Qadimgi turklarda davlat boshqaruvchisi bo'lgan Xoqonlar xalqqa murojaat qilganida o'ziga yaqin insonlardan boshlab, "...o'g'lanim, o'g'uşum..."² tarzida nutq irod qilganlar. *O'g'uş* so'zi ko'kturkcha lug'atida oila; "Devoni lug'otit turk"³da *oymak* – qarindosh, xesh³ ma'nolarida keladi.

Hozirgi kunga kelib, turk tilida oila atamasi arab tilidan o'zlashgan *aile* so'zi bilan ifodalanadi. Turk tilining izohli lug'atida *aile* so'zining oltita ma'nosi keltiriladi⁴. Birinchisi, turmush qurish yoki qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, er, xotin, bolalar, aka-uka (opa-singil)lar orasidagi munosabatlarda paydo bo'ladigan jamiyat ichidagi eng kichik birlik: *Birbirlerine nasıl tutkun, yangın bir aile olduklarını sayıp döktü.* –L.Tekin (Bir-birlariga qachalik mehribon, inoq oila ekanliklarini og'zini to'ldirib gapirdi).

Oila ota-ona va farzandlardan tashkil topgan jamiyatning eng kichik, ayni vaqtda eng muhim birligi hisoblanadi. Turk xalqi lisoniy manzarasida **oila** er, xotin va boladan tashkil topgan *çekirdek aile* (yadro oila) va barcha qarindoshlarni ifodalovchi *geniş aile* (katta oila) ko'rinishida namoyon bo'ladi. Har ikkala turdagi oilani erkak va ayol modellari orqali izohlash mavzu tafsilotlarini yorqinroq tarzda ko'rish imkonini ta'minlaydi.

TADQIQOTNING USULLARI

Tadqiqotning maqsadi turk tilidagi maqollarda erkak bilan bog'liq birliklarning konsept sifatidagi o'rni va uning lingvomadaniy xususiyatlarini yoritib berishdan iborat. Maqollardagi qadriyatga oid komponentlarda ota, er, o'g'il farzand obrazlarining konseptuallashuvini yoritib berish vazifalari qo'yilgan.

Usullar. Maqolada tavsiviy, konseptual tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Turk xalqi maqollariga nazar tashlar ekanmiz, erkak kishiga oila qurish oldidan ham, oila qurganidan keyin ham moddiy ta'minotchisi sifatida qarash borilini his qilasiz. *Bekarın boynunu bit yer, tutup biriktirdiğini it yer, Bekarın parasını it yer, yakasını bit* (Bo'ydoqning pulini it yeydi, yoqasini bit) maqollari uylanish chog'idagi yigitga uylanish tashviq qilinishi bilan bir qatorda, uning topgan puliga ishora qilinmoqda, ya'ni uni har kimga emas aynan oilasi uchun sarflashi kerakligiga rag'bat bor. *Derdin yoksa söylen, borcun yoksa evlen* (Darding bo'lmasa, noli(shikoyat qil), qarzing bo'lmasa, uylan) maqolida ham bunga guvoh bo'lamiz, moddiylik bu yerda *qarz* so'zi orqali ifodalangan.

Oilada er ta'minotining asosiy mahsulotidan biri go'sht hisoblanadi. Bu mahsulot hattoki maqollarda ham o'z aksini topganini ko'rish mumkin. *Ben istemez miyim kaynatam kasap ola kaynanam hamamcı ola* (men qaynotam qassob, qaynonam hammomchi bo'lishini xohlamaymanmi?) yoki *Kaynatam devletli olsun, kaynanam sahavetli* (Qaynotam davlatmand, qaynonam saxovatli bo'lsin) har bir kelin turmushga chiqqan xonadonidagilar bilan yaxshi munosabatda bo'lishni, nafaqat o'z erlarining, balki qaynotalarining ham serdavlat bo'lishini, lozim paytda ulardan dastak olishni xohlaydi. *Kocam it olsun, getirdiği et olsun* (Erim it bo'lsin, keltirgani go'sht bo'lsin) maqolida esa ba'zi ayollar o'zlari va oilasining ta'minotini qiladigan erkakning ayb-nuqsoniga e'tibor bermasligiga ishora qiladi. Shuningdek, ayollar erlarining boy-badavlat bo'lishini xohlaydilar *Kadın kocayı var sever, koca kadını sağ sever* (Ayol erini bor payti suyadi, er ayolini sog' payti sevar) yoki *Koca sağlığa, karı varlığa bakar* (er sog'liqqa, ayol boylikka qaraydi). Hatto, yo'qchilik, taqchilik davri bo'lganida ayolning qanday ekanligini bilish mumkin. *Kadına/Karına iyi deme yoksulluk görmeyince* (Yo'qchilik ko'rmay turib ayolingni yaxshi dema) deydi turk xalqi. Puli, mablag'i bo'lmagan erkak hech ishga yaramaydigan matoh singari qaraladi: *Karısız evi, parasız erkeği, vur ateşe yansın* (Xotinsiz

¹ Gömeç, S. Türk ailesine genel bir bakış. Aile yazıları / 7, Birinci baskı, Ankara: Aralık 2015, 3.s.; Manda loğlu, M. Eski Türklerde aile ve evlilik anlayışı, Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi, Cilt-4, Sayı-8, Temmuz-2022, 483.s

² <https://www.sabah.com.tr/egitim/ogus-ne-demek-tarihte-eski-turk-aile-yapisinda-ogus-nedir-ve-ne-anlama-gelir-e1-5994897>

³ <https://www.turkcenindirilisi.com/sozluk.html?search=oğuş&type=complex>

⁴ Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı, Ankara 2011, 57.s

uyini, pulsiz erkakni olovga tashla yonib ketsin). Erkak kishidan kutiladigan va talab qilinadigan asosiy narsa ta'minot ekan.

Turk lingvomadaniy tafakkurida oila konseptosferasi, uning tarkibidagi ota-ona konseptlari haqida meros tushunchasi ham alohida ahamiyatga ega. Maqollarda ham mazkur tushuncha bilan bog'liq qarashlar ko'zga tashlanadi. Merosning lug'atda kelgan birinchi ma'nosi biror kishidan yaqini yoki farzandlariga qolgan mol-mulk turk xalq maqollarida aynan *miras* (meros), *kar* (foйда), *mal* (mol-mulk), *bağ* (bog') so'zlari orqali ifodalangan. Quyidagi maqollarda otadan qoladigan narsa odamiylik emas, aynan meros ekanligi, otadan qolgan mol-mulkning qadr-qiymati yo'qligi, qolgan boylik haqiqiy boylik emas, inson o'zi ishlab topishi lozim ekanligi, otadan qolgan mulk shamga qiyoslanib tez tugashi ta'kidlangan: *Babadan adamlik değil, miras kalır* (Otadan odamiylik emas, meros qoladi), *Babanın kârı evlada miras* (Otaning foydasi farzandga meros), *Babadan kalan malın kıymeti bilinmez* (Otadan qolgan molning qiymati bo'lmaydi), *Ata malı mal olmaz, kendin kazanmak gerek* (Ota moli mol bo'lmas, o'zing ishlab topishing lozim) *Baba malı tez tükenir, evlat gerek kazana* (Ota moli tez tugaydi, ishlab topish uchun farzand kerak), *Baba mirası mum gibidir, çabuk söner* (Ota merosi sham kabidir, tez so'nadi), *Babası oğluna bir bağ vermiş, oğlu babasına bir salkım üzüm vermemiş* (Ota o'g'liga bir bog' qoldiribdi, o'g'li atasiga bir bosh uzum bermabdi). Maqollarning aksariyatida farzandiga qoldirilgan narsa hamisha ham mol-mulk bo'lmagan, otaning olgan qarzlari ham meros sifatida qolgan: *Baba borcu evlada düşer* (Ota qarzini to'lash farzand zimmasiga tushadi). Ayrim maqollarda farzandlar otadan qolgan meros bilan mag'rurlanmaslik kerakligi, hammasi o'tkinchi ekanligini pand-nasihati tariqasida ifodalangan *Anan güzel idi, hani yeri, baban zengin idi, hani evi* (Onang go'zal edi qani o'rni, otan boy edi, qani uyi), *Ana baba ile iftihar olunmaz* (Ota-ona bilan maqtanilmaydi). Bundan tashqari, lug'atdagi ikkinchi va uchincha ma'nolarida qayd etilganidek, ota-onadan farzandiga nafaqat mol-mulk, balki ularning baxti, o'chog'i, san'ati, do'sti ham meros qoladi *Ana bahtı kızına, baba ocağı oğula kalır* (Ona baxti qiziga, ota o'chog'i o'g'ilga qoladi), *Babanın/atanın sanatı oğla mirastır* (Otaning san'ati o'g'ilga meros), *Ata dostu oğula mirastır* (Ota do'sti o'g'ilga meros). Shuningdek, ota-ona qilgan noto'g'ri, xato ishlar farzandlari hayotida ham o'z aksini ko'rsatishi ham maqollarda ifodalangan: *Baba koruk yer, oğlunun dişi kamaşır* (Ota xom meva yeydi, o'g'lining tishi qamashadi). Demak, maqollardagi ma'nolardan kelib chiqadigan bo'lsak, ota-ona farzandi moddiy borliqdan tashqari, ma'naviy boylik ham qoldirishini bilib olamiz. Biroq ota-onadan farzandga salbiy xususiyatlar ham meros qolishi mumkinligi keltirib o'tiladi.

Turkiy xaqalarda uchraydigan umumiy jihatlardan biri urning oilada hukmron bo'lishidir. Turk xalq maqollarida ham bu holatga bevosta va majoziy obrazlar orqali kuzatish mumkin. Maqollarda er kuch timsolida ba'zan qaror oluvchi kuch, ayrimlarida idaraviy, yana ayrimlarida zulmkor kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Bir değirmene iki taş ister, bir haneye bir baş ister (Tegirmonga ikki tosh, xonadonga bitta bosh kerak) tegirmonning faoliyati tartibli va maromida bo'lishi uchun ikki tosh qanchalik muhim bo'lsa, oilaning tartib-intizomi uchun bir boshga ya'ni boshqaruvchiga ehtiyoji bor. Oila so'zi mazkur maqolda *hane* so'zi va er, boshliq yoki boshqaruvchi baş so'zi orqali ifodalangan.

Herkes evinin beyidir (Hamma o'z uyining begidir) maqolidagi hamma so'zi erkakni ifodalab kelmoqda va u o'z uyida hukmini o'tkazadi, so'ziga quloq beriladi ma'nolarini anglatmoqda. Bey o'z navbatida hokimiyat, boshqaruvni bildiradi.

Erkek gözü dört olur, kendinizi toplayın (Erkakning to'rt ko'zi bor, o'zingizni yig'ib oling) maqolining ikki ma'nosi bo'lib, birinchisi, ayol kishi uyini va o'zini eri uchun saramjon qilib o'tirishi lozim. Ikkinchisi esa, ayol ust-boshi va yurish turishiga ahamiyat berishi kerak, chunki begona erkaklarning ko'zi unda bo'lishi mumkin.

Turkiy xalqlarda er oilaning qo'rg'oni sifatida qaraladi. Qo'rgo'n so'zining baland devorli qal'a, devor bilan o'ralgan hovli-joy va uning ichidagi, atrofi, odatda, bog', ekinzorlardan iborat bo'lgan binolar va ulkan maqbara ma'nolaridan kelib chiqqan holda, ushbu ma'noni aks ettiruvchi turk maqollarini saralab oldik. Ulug'vor so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida savlatdor

ko'rinishli, salobatli, muhtasham, ulug' kabi ma'nolar bilan izohlangan⁵. Bundan tashqari *kenglik, muqaddaslik* ma'nolarida kelgan maqollarni ham ushbu bo'limga oldik, chunki maqbara ziyoratgoh, ya'ni muqaddaslik timsoli hisoblansa, ekinzor va bog'-rog'lar keng joyini talab qiladi.

Shuningdek, turk maqollarida erga (ota yoki o'g'il emas, aynan erga) ayol nuqtayi nazaridan ulug'lik-balandlik sifatida qarash kuzatiladi. "*A kız ağan ne çirkin!*" "*Babamın evinde o da yok idi.*" ("E dugona, og'ang(ering) namuncha xunik!" "Otamni uyida shu ham yo'q edi") yoki *Ağa başlı kardeşim olacağına, ağır başlı kocam olsun* (Og'a boshli ukam bo'lganidan, og'ir bosiq erim bo'lsin) maqollarida ayol uchun erning ustunligi, qadri yaqqol ifodalangan.

Farzandlarga pand-nasihahat tariqasida yana bir qator maqollarga duch keldik. Biroq endilikda keltirmoqchi bo'lgan maqollarda ota-ona, unga qilinadigan xizmat ulug'lanibgina qolmay, ilohiylashtiriladi. Muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimning Isro surasi 23-oyatida ham "Robbing faqat Uning O'zigagina ibodat qilishingni va ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. Agar huzuringda ularning birlari yoki ikkovlari ham keksalikka yetsalar, bas, ularga «Uff», dema, ularga zajr qilma va ularga karamli so'z ayt!" oyati ularga qanday munosabatda bo'lish lozimligi bayon qilingan. Farzandlarning ota-onaga xizmati Tangriga qilingan ibodatlar sirasida qabul qilinadi *Anaya babaya hizmet, Tanrıya ibadet* (Ota-onaga xizmat, Tangriga ibodat), *Ata yolu doğru yoldur* (Ota yo'li haq yo'lidir) otalar tanlagan yo'ldan yurgan adashmaydi, ular tanlagan yo'l, yashash tarzi to'g'ridir, haqdir. Quyida beriladigan maqollarda ota-onaga qarshi chiqish, qarg'ishini olish qoralangan va bunday holatga tushishdan qaytarilgan. *Atanın önünden geçeni Allah sevmez* (Otaning oldidan o'tganni Alloh suymas) boshqa xalq yoki madaniyat nuqtayi nazaridan qaralganda oddiy va odatiy qaraladigan bu holat, turk xalqi madaniy shuurida odobsizlik va hurmatsizlik sifatida baholanadi. Bu holat shunchaki tanqid qilinib qolmasdan, Alloh suymaydigan ishlar sirasiga kiritiladi. Ya'ni qat'iy tarzda bu ishdan qaytariladi. *Ana baba bedduasını alan onmaz* (Ota-ona qarg'ishini olgan o'ngmas) maqolida ham qattiq va qat'iy qaytariq bor: ota-onaga qarshi chiqmaslik. Maqollar tarkibidagi badduo va osiy so'zlariga e'tibor qaratsak, mazkur maqollar turkiy xalqlar islomni qabul qilganidan keyin paydo bo'lgan, degan xulosaga borishimiz mumkin. Zotan, oilaga katta ahamiyat bergan turk xalqi, islom dini ta'sirida oilaviy rishtalarga yana-da kuchli diqqat qaratganiga guvoh bo'lamiz.

Bir koca yedi oğula bedeldir (Er yetti o'g'ildan afzaldir) ayol kishi uchun farzandlari aziz, lekin eri ulardan ham azizroq. Er o'g'il farzandlardan yuqoriga qo'yilmoqda.

Farzand dunyoga kelganida, ayniqsa, o'g'il farzand dunyoga kelganida ayollar darajasi bir pog'ona oshadi. Bu bilan bog'liq mulohaza va tahlillarimizni farzand bilan bog'liq faslda batafsil yoritishga harakat qilamiz. Bu yerda faqatgina o'g'il farzandning ham uy-oilaning ichidan tashqariga yo'nalganligiga doir maqolga to'xtalib o'tamiz. *Doğurdum oğlum oldu, evlendi komşum oldu* (Tug'dim o'g'lim bo'ldi, uylandi qo'shnim bo'ldi) maqolida turk xalqi madaniyatidagi yana bir xislatni kuzatishimiz mumkin. Erkak uylanganidan keyin ota-onasi dargohidan alohida chiqib, boshqa bir oilaga asos soladi. Hattoki ayrim maqollarida ota-ona bilan birgalikda qarimaslik kerak (*Baba ile ana ile yaşanılmaz*) maqoli ham bor. Bu yerdagi diqqat qaratmoqchi bo'lgan jihatimiz "tashqari" yoki "tashqaridagi odam" faqatgina er yok iota emas, o'g'il farzand (komşu) ham anglatmoqda. Bu xulosamizni quvvatlovchi yana bir maqol *Ekin ekdim yel aldı, değirmen yaptım sel aldı, oğul yetiştirdim el aldı* (Ekin ekdim yel oldi, tegirmoq qurdim sel oldi, o'g'il o'stirdim el (begona) oldi). Mazkur maqolda *yel, sel, el* so'zlari o'zaro qofiya hosil qilib kelgan bo'lib, bu yerdagi asosiy urg'u o'g'il farzandning uylanganidan keyingi holati, ya'ni begonalashuviga (el aldı) qaratilgan. Oilani markaz deb qaraydigan bo'lsak, o'g'il farzandning uylanganidan keyingi holatini markazdan uzolashuvga o'xshatsak bo'ladi. Faqat bu yerdagi uzoqlashuv boshqa bir markazni hosil qilish uchun amalga oshiriladi.

Turk tilida *kuyov* so'zi *damat* va *güvey* deb ataladi. *Güvey* qadimgi turkiyda *küüd* – qaramoq, boqmoq, ko'z quloq bo'lmoq ma'nosini, *damat* esa fors va o'rta fors tilida to'y egasi ma'nosini anglatadi *Kızın kimi severse güveyin odur, oğlun kimi severse gelinin odur* (qizing

⁵ <http://savodxon.uz/izoh>

kimni suysa, kuyoving o'sha, o'g'ling kimni suysa, kelining o'sha). Oila, uy ichidagi a'zo(qiz)ni olib ketuvchi kishi hisoblanadi. Turk tilida *ıç güveyi*⁶ (ich kuyov) qarindoshlik atamasi biror oilaning qiziga uylanib, qizning oilasining uyida yashovchi kishini anglatadi. Turk tilida kuyov uchun ikki xil atama qo'llaniladi – kuyov va ich kuyov. Ushbu xalq madaniyatida er kishi, kuyov tashqarilik ma'nosini ifodalashini shu yergacha bo'lgan maqollarda kuzatdik. Bu tushunchaga ziddiyat holati ichkariga yo'nalganlik xalq madaniyatida salbiy holat sifatida baholanadi. Masalan *İçgüveysi iç ağrısı* (Ichkuyovi ich og'rig'i) noqulaylik, hastalik sifatida yoki *İçgüveyliğinde ya kediden miskin, ya kılıçtan keskin olmalı* (Ichkuyovlikda mushukdan ham bechora yoki qilichdan ham o'tkir bo'lish kerak) ich kuyovlikni qabul qiladigan erkak juda beg'am, o'jiz, notovon bo'lishni bo'yniga olishi kerak. Yoki oilada o'z o'rniga egaligini ko'rsatish uchun qizning oilasiga kuchli ta'sir o'tkazishi talab qilinadi. Ikkinchi holat aksariyat holatlarda kuzatilmaydi, chunki bunday salohiyatga ega inson ich kuyovlikni o'ziga ravo ko'rmaydi.

Tarozining ikki pallasini bo'lgani kabi oilaning mustahkam, kam-ko'stsiz bo'lishi erkak kishiga ham bog'liq bo'ladi. Ayolni o'z "yo'rig'iga solish" va tarbiyalash erining vazifasi hisoblanadi, zero *Gül dalından odun, beslemeden kadın olmaz* (Atirgul butasidan o'tin, tarbiya qilmasdan xotin bo'lmas.). Ayolning go'zalligi, tarovati erining unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi: *Kadını yeşil yaprak eden de kocası, kara toprak eden de kocası* (Xotinni yashnatadigan ham, qora tuproq qiladigan ham erdir). Eri yaxshi bo'lsa, yana ham ko'rkamlashib yana-da chiroyli (*yeşil yaprak*) bo'ladi, yomon bo'lsa, bor go'zalligini yo'qotib, ko'rimsiz bir ayol (*kara toprak*)ga aylanib qoladi. Er ayoli uchun qo'rg'on bo'lmog'i kerak. Uni har qanday yomonliklardan asray bilishi lozimligi *Avradı eri saklar, peyniri deri* (Ayolni eri saqlar, pishloqni teri) maqoli vositasida keltirib o'tilgan.

Ota – meros qoldiruvchi: *Ata dostu oğula mirastır* (Ota do'sti o'g'ilga meros), *Baba borcu evlada düşer* (Ota qarzini o'g'il to'laydi), *Ata malı mal olmaz, kendin kazanmak gerek* (Ota moli mulk bo'lmaydi, o'zing ishlab topishing kerak). Turk maqollarida ota uyning rahbari bo'lib qolmasdan, mol-mulk egasi ham hisoblanadi. Merosni qabul qilib oluvchi ham asosan o'g'il farzanddir. Otadan faqat mol-mulk yoki boylik emas, balki hunar, o'zining do'sti, yaxshiliklari, qolaversa, qarzlar hamda yomon nomi ham meros bo'lib qoladi.

Ota – o'g'il uchun namuna: *Babadan gören sofrı salar, anadan gören minder serer* (Otadan ko'rgan dasturxon ochadi, onadan ko'rgan ko'rpacha to'shaydi), *Oğlan atadan öğrenir sofrı kurmayı, kız anadan öğrenir bıçkı biçmeyi* (O'g'il otadan dasturxon yozishni, qiz onadan tikish tikishni o'rganadi), *Baba ekşi elma yer, oğlunun dişi kamaşır* (Ota nordon olmay yesa, o'g'lining tishi qamashadi). Maqollardan ko'rinib turganidek, ota har jihatdan o'g'il uchun namuna va o'rnak hisoblanadi. Oila ichidagi tutumdan tortib, jamiyatdagi o'zini tutishgacha, ya'ni har jabhada farzandiga rahnamo vazifasini bajaradi.

Er – ayolning baxtini belgilovchi shaxs: *"A kız ağın ne çirki!" "Babamın evinde o da yoktu"* (Dugonajon, og'ang buncha ko'rimsiz! Otamning usyida shu ham yo'q edi), *Ağa başlı kardeşim olacağına, ağır başlı kocam olsun* (Og'alarday ukam bo'lgunicha, vazmingina erim bo'lgani yaxshi edi). Ayollarning oilada va umuman jamiyatdagi mavqeyi, uning hayotdan mamnun ekanligi turk maqollarida uning eri orqali ekanligi ko'p bora ta'kidlanadi. Erning xonadoni ota uyidan ustun qo'yiladi. Jamiyatda esa aynan eri orqali hurmat-izzat topadi. Ersiz xonadon jamiyat nazdida chetlangan, e'tiborsiz qoldirilgan xonadon sifatida qaraladi.

Bo'ydoq – erkak tajribasiz, gapi inobatga olinmaydigan shaxs: *Bekarın ahmağı toyda kız beğenir* (Bo'ydoqning nodoni to'yda oshiq bo'ladi), *Ergen gözüyle kız alma, gece gözüyle kız alma* (O'smir ko'zi bilan qiz, tun ko'zi bilan bo'z olma). Birinchi galda turmush qurishdan oldingi holat yuzasidan turk xalqi madaniyatida, tafakkurida erkak kishi, agar uylanishni kechiktirayotgan yoki uylanish masalasida qat'iy qaror qabul qila olmayotgan bo'lsa, **"xarob, kulgili, bemakon, notavon"** holatda gavdalanadi. Turk madaniyatida oila hanuz oila qurmagan erkak yoxud oila qurishni kechiktirayotgan erkakga nisbatan salbiy baholashni kuzatish mumkin.

⁶ Türkçe Sözlük, Ankara 2011, s.1145

Uning so'zi inobatga olinmaydi, chunki u oila deb atalgan tajriba maktabiga ega emas. Shuning uchun ham uylangan erkaklarga bo'ydoqlardan maslahat olish tavsiya qilinmaydi.

Er – oilaning ta'minotchisi: *Er getire, hak getire* (Erning keltigani, haqning keltigani), *Er getirir, kadın yetirir* (Er olib keladi, xotin yetkazadi. Er kishi oila ta'minotchisi hisoblanadi va bu uning oiladagi mavqeyini baland qilib turuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Oilada ayol kishining vazifalaridan biri uning pazandalik mahorati bo'lsa, erning vazifasi esa shu yemaklar uchun masalliqni ta'minlash hisoblanadi).

Er mehnatkash bo'lishi kerak: *Er emekli olursa, kadın yemekli olur* (Er mehnatash bo'lsa, xotin pazanda bo'ladi), *Erim er olsun da evi olmasın* (Erim er bo'lsin uyi bo'lmasa ham), *Erkeğin elinde çubuk, kadının elinde çocuk* (Erkakning qo'lida tayoq, xotinning qo'lida chaqaloq). Turk maqollarida oilada erkak mehnatsevar bo'lishi lozimligi uqtiriladi. Oilaning farovonligi erkakning mehnati va xotinning oqilona taqsimoti evaziga amalga oshiriladi.

Er saxiy bo'lishi kerak: *Er cimri olursa, avrat yüzüz olur* (Er xasis bo'lsa, xotin yuzsiz bo'ladi), *Er ekmeği meydan ekmeği, baba/evlat ekmeği zindan ekmeği* (Er noni maydon noni, ota/farzand noni zindon noni). Turk madaniyatida oilada er saxovatli bo'lishi lozimligi uqtiriladi. Aks holda oilada muvozanat buzilishi va oqibatda xotin yuzsiz, ya'ni andishasiz bo'lishidan ogohlantiradi.

Qo'shxotinli erning hayoti azob-uqubatli bo'ladi: *Kadının biri ala, ikisi bela* (Xotinning biri a'lo, ikkitasi balo), *İki karılı bitten, iki analı süttten ölür* (Ikki xotini bor bitdan, ikki onasi bor sutdan o'ladi). Turk maqollarida qo'shxotinlik masalasiga ham to'xtalib o'tilgan. Maqollar soni ko'pchilikni tashkil etmasa ham ushbu masala tarixdan beri borligini va uning oqibati erkak uchun ijobiy emasligini ta'kidlab keladi.

Yaxshi er: *Er var karının derdini çeker, karı var erinin derdini çeker* (Shunday erlar bor xotining dardini o'ylaydi, shunday ayollar bor erining jabrini tortadi), *Eşini ağlatan gülmemiş* (Xotini yig'latgan kulmas ekan), *İyi adam eşeğinden, iyi karı döşeğinden belli olur* (Yaxshi er eshagidan, yaxshi xotin to'shagidan bilinadi), *İyi koca karısını gül yaprak; kötü koca kül toprak eder* (Yaxshi er xotini gul-yaproq qiladi, yomon er xotini kul-tuproq qiladi), *İyi kocanın karısı hamamda belli olur* (Yaxshi erning xotini hammomda bilinadi). Turk oilasida erkakdan kutiladigan yana bir xususiyat yaxshi er bo'lishidir. Maqollarda yaxshi er ta'riflari xotining tashvishlarini o'ylaydigan, xotini yig'latmaydigan, unga g'amxo'rlik qiladigan, kaltaklamaydigan tarzlarida keladi. Turk xalqida uzoq yillardan buyon hammom madaniyati bor. Unda ayollar asosan ijtimoiy muloqot amalga oshirish, kelin tanlash masalasida to'planganlar. Hammomda tanalaridagi jarohat izlaridan erlarining kaltaklaganliklari oshkor bo'lib qolgan, shundan kelib chiqib shu maqol paydo bo'lgan.

Oqil-nodon farzand: *Aç aman bilmez, çocuk zaman bilmez* (Och qanoat bilmaydi, bola paytini bilmaydi), *Akıllı adamın akılsız oğlu olur* (Oqil odamning nodon o'g'li bo'ladi), *Akıllı oğlan neyler ata malını, akılsız oğlan neyler ata malını* (Oqil bola nima qiladi ota molini, nodon bola nimalar qilmaydi ota molini).

Yaxshi-yomon farzand: *Baba oğluna bir bağ vermiş, oğlu babasına bir salkı üzüm vermemiş* (Ota o'g'liga bog' beribdi, o'g'li otasiga bir bosh uzum bermabdi), *Bir baba dokuz oğlanı besler, dokuz oğlan bir babaya bakamaz* (Bir ota to'qqiz bolani boqadi, to'qqiz bola bir otani boqa olmaydi), *Devletsiz oğlun olmadıktan, devletliye kul olmak yeğdir* (Davlatsiz (xayrsiz) o'g'ling bo'lgandan, davlatli(xayrli) odamga qul bo'lgan yaxshi), *İyi oğul bilir ana halini, kötü evlat satar baba malını* (Yaxshi o'g'il bilar ona holini, yomon o'g'il sotar ota molini).

Ota-onasidan ko'rganini takrorlaydigan farzand: *Oğlan babadan görür sofrı açar, kız anadan görür çeyiz serer* (O'g'il otadan ko'rib dasturxon yozadi, qiz onadan ko'rib, sarpo yoyadi), *Oğlan babadan öğrenir sofrı yazmayı, kız anadan öğrenir kapı gezmeyi* (O'g'il otadan dasturxon yozishni o'rganadi, qiz onadan eshikma eshik yurishni o'rganadi).

Oilada farzandlarning o'rni nechog'lik baland bo'lmasin, turmush o'rtog'ining o'rni bosa olmaydi. Ko'proq beva ayollar *Otuz oğlun olacağına bir oturak kocan olsun* (O'ttizta o'g'ling

bo'lgandan, bitta sen bilan o'tiradigan ering bo'lsin ekan) maqoli orqali farzandlari unga qaray olmayotganidan yoxud kerakli mehrni berolmayotganidan emas, balki erning oilada va ayolning hayotida o'rni beqiyosligini uqtirmoqda. Turk xalqida erning noni beminnat ekanligini ta'kidlovchi quyidagi maqol ikki shaklga ega, ya'ni *Baba ekmeği zindan ekmeği, koca ekmeği meydan ekmeği* (Ota noni zindon noni, erning noni maydon noni) va *Oğul ekmeği zindan ekmeği, koca ekmeği meydan ekmeği* (O'g'il noni zindon noni, erning noni maydon noni). Birinchi maqolda ayollarning qizlik uyidagi voyaga yetgan holidayi, o'z uyiyo o'zini begonadek his qilish holati bo'lsa, ikkinchi maqolda o'z o'g'li, farzandi mehnati evaziga kelyapti-yu, o'zini xijolatli his qilishi⁷ ifodalangan. Bu maqol o'zbek tilidagi "Erimning topganini o'ynab yeyman, bolamning topganini o'ylab yeyman" maqoliga teng keladi.

Turk oilasida o'g'il farzandning qizga nisbatan ustun ko'rilishi va u orqali ota-onaga, ayniqsa, onaga oilada va jamiyatda munosabatning o'zgarishi maqollarda o'z aksini topadi. Farzandga ota-onaning ko'zgusi sifatida qaralib, ular orqali oiladagi muhit, otaning jasorati, mardligi, mehribonligi; onaning ziyrakligi, mohirligi ularning xatt-harakatlari orqali baholanadi. Jamiyat ko'z o'ngida o'g'il otani, qiz onani namoyon qiladi. Ramziy ma'noda daraxt, arpa-bug'doy, nok, uloqcha obrazlari maqollarda farzand tushunchasini ochib berishga xizmat qilgan.

XULOSA

Turk madaniyatida erkak yadro (nuklear) oila ichida er, ota va o'g'il farzand timsolida gavdalanadi.

1. Ota oilada farzandlar uchun namuna va muqaddas borliq sifatida baholanadi.
2. Er kishining ichkariga yo'nalganligi (ich kuyovlik) salbiy holat o'laroq qaralishi aniqlandi.
3. Er yaxshi yoki yomon bo'lishidan qat'iy nazar oilada bo'lishi lozim bo'lgan shaxs sifatida gavdalanishi, hamda ayol kishining jamiyatdagi o'rni u orqali belgilanishi maqollarda o'z tasdig'ini topdi.
4. Turk madaniyatida erkakning ulug'lik va muqaddaslik qadriyatlari maqollarda aks ettirilgan. Ulug'lik yoki yuqorilik birinchi galda erning ayoldan ustunligi sifatida kuzatilsa, maqollarning mazmunida erning o'g'ildan yoki ayolning aka-ukasidan, er uyining ota uyidan afzal ekanligida ham ko'rinadi.
5. O'g'il farzand bo'lib dunyoga kelishning o'ziyoq turk madaniyatida katta qadriyat hisoblanishi aniqlandi. U bilan ota-onaning jamiyatdagi mavqeyi, onaning oiladagi o'rni belgilanadi. O'g'il farzandning voyaga yetib tashqariga yo'nalganligi yangi bir oila paydo bo'lishi bilan yakunlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gömeç, S. Türk ailesine genel bir bakış. Aile yazıları / 7, Birinci baskı, Ankara: Aralık 2015, 3.s.; Mandaloğlu, M. Eski Türklerde aile ve evlilik anlayışı, Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi, Cilt-4, Sayı-8, Temmuz-2022
2. Türkçe Sözlük, TDK, 11.baskı, Ankara 2011
3. Алтинбоев Н. Эр-хотин муносабатларини ифодаловчи туркча мақолларда "оила" концепти, Sharqshunoslik, ТДШУ Илмий журнали, 1 сон, Т., 2022
4. Aksoy, Ö.A. Atasözleri ve deyimler sözlüğü. Atasözleri sözlüğü I, 9.baskı, İstanbul 1994
5. <https://www.sabah.com.tr/egitim/ogus-ne-demek-tarihte-eski-turk-aile-yapisinda-ogus-nedir-ve-ne-anlama-gelir-e1-5994897>
6. <https://www.turkencinindirilisi.com/sozluk.html?search=oğuş&type=complex>
7. <http://savodxon.uz/izoh>

⁷ Алтинбоев Н. Эр-хотин муносабатларини ифодаловчи туркча мақолларда "оила" концепти, Sharqshunoslik, ТДШУ Илмий журнали, 1 сон, Т., 2022, 77-б.